



**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINI BOSHQA FANLAR BILAN
INTEGRATSIYASI.**

Usmonova (Xolboyeva) Madina Asror qizi

Annotatsiya: *Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridandir. U o'zining 40 yildan oshiqroq ijodiy faoliyatida barcha ijtimoiy sohalarini aks ettiradigan asarlar yaratdi, asarlari turli tillarga tarjima qilindi. Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko'rsatgan nodir iste'dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo'qki, ko'p qirrali talant egasi bo'lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o'z talantini namoyish qilmagan bo'lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani qoyil qoldirdi, bu janrlarda, xususan, hikoyachilikda, original va yetuk badiiy asarlar yaratdi. Abdulla Qahhor so'zga xasis, fikrga saxiy san'atkor. Adib ijodining fazilatlari ko'p. U ko'pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda "qo'riq"larni ochadi, yangi gap aytadi, yangi timsollar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijodidagi novatorligi ham, avvalo, ana shundadir. Yozuvchining asarlari yuksak badiiyligi, g'oyaning aniqligi, ijtimoiyligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlari adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarini boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar: "Daxshat" hikoyasi, iqtisodiy imkoniyat, xalqchil, musibat, satirika va yumoristika, adabiy tanqid, tarix, epik tur.

KIRISH

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z ovozigacha ega bo'lgan, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo'lgan. Uning asarlariga qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o'ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi.

Adabiy ta'lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma'rifatga to'la bo'lgan. Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pyesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza ob'ekti bo'lib qolishi shubhasizdir. Abdulla Qahhor hikoyalarida satirik va yumorist





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sifatida o'z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka tamoyili zo'r edi. Buni juda ko'p asarlari aytib turibdi. U zamonga o'z idealini, davr nafasini qarshi qo'yadi, asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko'rsatadi. Abdulla qahhorni novellachilikda ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelgan omillardan yana biri uning mumtozlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan o'qish o'rganishi bo'ldi. "Ulug' san'atkorning ijodi, – deb ta'kidlagan edi shoir, – badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo'ldi". Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishonitirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'laki, epizodi bo'lib gavdalanadi; hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. "Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyodabundan oson ish bo'lmas edi, – deydi adib. Hayotdan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirishday gap. Nusxa nusxa bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutib bo'lmaydi. originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarni singdirish, tilaklaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi.

Zotan, yozuvchi hikoyalaridagi hayotiylik, ishonitirish kuchi, siri anashunda. Bundan ham muhimi, yozuvchining o'sha hayot hodisalarini o'ziga xos tarzda badiiy idrok etishi, mag'zini chaqib, ulardan xilma-xil original va teran ma'nolar topishi kashf etishi hikoyalariga o'ziga xos joziba baxsh etgan. Qahhor tabiati, iste'dod yo'nalishi jihatidan hayotdagi, odamlar qismatidagi fojeiylikni teran his etadigan adibdir. Uning eng yetuk hikoyalari ayni fojiali holat, qismatlar ifodalangan asarlardir. Hikoyalaridagi personajlar, hayotdan olingan epizodlar, lavhalar garchi muayyan intiho, badiiy yechim bilan yakunlansa-da, bunday yakun galdagi fojialar, ko'rguliklarning debochasi vazifasini o'taydi. Adib hikoyalari o'zining ixcham va ravonligi bilan qalbga oson va tez kirib bora oladi. Sababi yozuvchining aksariyati tabiiy, hamda o'ta tushunarli. A.Qahhor xalq tilini benihoya yaxshi bilar, qadrlar va unga mas'uliyat bilan yondoshar edi. Asarlarida birorta so'z ochiqchaligi sezilmasdi, ixcham iboralardan tashkil topgan tasvirlar

ma'nodorligi bilan istalganidan ko'proq mazmun kasb etadi. Xulosa qilib ayganda, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojiiy mohiyatni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalandirish Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridir. Abdulla Qahhorning 6-sinf darsligida berilgan "Bemor" hikoyasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak. Hikoya "osmon yiroq, yer qattiq" degan epigrafi bilan boshlanadi. Bu asar o'sha davrga kelib iqtisodiy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan kishilar kasallikka qarshi muolalarni ham ololmaydi, shu oddiygina kasalliklar tufayli erta hayotdan ko'z yumushadi. Asarda tabib, qonlovchi kabi shaxslarning obrazi berilgan. Ular bemorni tuzatish mobaynida bir necha davolash





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

usullaridan foydalanishadi. Bu kabi holatlar asarni bevosita “odam vauning salomatligi” fani bilan bog ‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, hikoya pul sababli inson qadri deb atalmish tushunchalar o ‘z o ‘rnini yo ‘qotib borayotganligini ko ‘rsatadi. Butun boshli jamiyatning birgina qizaloq qiladigan duolar bilan kifoyalanishi – asarning mazmunini ochib beruvchi eng katta omil. Shifoxanalar, shifokorlar, boylar bo ‘la turib, ayolga yordam beradigan bir aqlli odam topilmaydi. Savat to ‘qib ayolini saqlab qolishga harakat qilayotgan, shifokorga ko‘rsatish uchun imkoniyati yetmaydigan Sotiboldining ham ahvoli nochor, ilojsiz tasvirlanadi. Shuncha yordam berishga yordam beroladigan kishilar bo ‘la turib bir bemor va yosh ayolni saqlab qolmagan jamiyatda, tuzumda eng katta ayb. Bemor Sotiboldining xotini emas. Davr, muhit, jamiyat, insonlarning ma ‘naviyati, insoniyligi –bemor. Bu kabi muammolar insonlarning bilimsizligi, tarbiyasizligi holatlaridan kelib chiqqan. Shuning uchun ham ta ‘im jarayonida tarbiya faning muhimligi, shuningdek tarix va adabiyot fani bilan aloqadorlini ko ‘rsatadi.

Dahshat hikoyasiga to ‘xtalsak, “Dahshat” hikoyasining boshlanishida Nodirmohbegim shunday hikoya so ‘zlab beradi. Bo ‘yra kelib darchaga urilgandan so‘ng bu voqea Nodirmohbegimning hayoliga keladi. Bo ‘yra kelib darchaga urilgandan so ‘ng Dodxo cho‘chib ketadi va undan so ‘ng Nodirmohbegim aytgan voqea Unsinni tetiklashtiradi. Erkini uyg ‘onishiga turtki bo ‘ladi. Unsinning qo ‘yni arzimasa narsa ekan deyishi va qabristonday joyga borib go‘rga pichoq sanchgan odamni “o ‘lsin nokas odam ekan” deyishi boyni jahlini chiqaradi. Unsinning tegirmonchining qizi bo ‘lib, qo ‘yni nazarga ilmasligi Dodxoni yangi reja tuzishga undadi. Dodxo:

“ Sen o ‘zing, o ‘nta qo ‘y bersam, davlatimni yarmini bersam pichoq sanchib kelasanmi? -dedi. Unsin menga davlat kerak emas, kerak bo‘lsa borar edim deydi va shunda dodxo kutib turgandek “Nima kerak?” deydi va Unsinni kundoshlari javob berishga undaydi, - “Ruhsat bersangiz Ganjiravonga ketsam” .Mute xotinlari bilan yashab o‘rgangan dodxo Unsinni gapini tushunmaydi. Unsin shijoat, jasorat bilan Dodxoga tik boqadi, - “Yo ‘q men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz” .Dodxo Unsinni mute ayollari singari savalamadi. Muloyimlik bilan, - “Go ‘ristonga pichoq emas, qumg ‘on olib borasan, onhazratim sag‘anasida bitta choy qaynatib, choy damlab kelasan, maylimi” . “Mayli”,- dedi Unsin. Shundan keyin Unsin qabristonga yo ‘l oldi. Qabristonda qo ‘rqan paytida “o ‘likning joni yo ‘q” deb baqirdi. Sag‘ana oldiga qo ‘lida qumg ‘on, paranji, choynak bilan keladi. O‘tin esidan chiqadi va qabrlar orasida xas-xashaklarni terib olov yoqadi. Bu uning ozod bo‘lishining birinchi belgisi edi. Nihoyat Unsin choyni qaynatib uyga yo ‘l oladi. Yo‘lda oyog ‘i chuqurlikka tushdi u qo‘rqib “o ‘likning joni yo ‘q” - deb baqirdi. Bir kavushi tushib qoldi va mahsichan ketaverdi. Yo ‘lda uning yelkasiga nimadir minib oldi va Unsin hushidan ketdi. U Dodxoning maymuni edi. Unsin hushiga keldi va yo ‘lida davom etdi. Chap qo ‘lida qattiq og‘riq boshlandi va darmoni yetgancha harakat qilardi bu ham yetmagandan choynak og‘irlashganday bo ‘ldi. Unsin manziliga yetdi. Nodirmohbegimning eshigi ochildi va Unsinni ko‘rgan Dodxo tashqariga otili. “Qabristondan qo‘rqqanga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qabristonning tuprog 'i davo' -deb Nodirmohbegim go 'riston tuprog'idan olib keltirib, suv ichiradi. Unsinning ahvoli og'irlashadi va Ganjiravonga ketishini so 'raydi. Nodirmohbegim kaltaklanishdan hayiqmay bir xizmatkorini Ganjiravonga yuboradi, biroq Unsin peshingacha yetmadi, joni uzildi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor bu hikoyada burungi zamondagi oddiy, sodda o 'zbek ayyollarining boshiga tushgan xo'rlik, musibat, kulfatlarni tasvirlaydi. Shu bilan birgalikda, "Dahshat" hikoyasi erksiz insonlarni ozodlikka chiqish yo 'lidagi mashaqqatli harakatlarni ko 'rsatadi. Dahshat hikoyasini yaratishda Abdulla Qahhor xalq og 'zaki ijodidan foydalangan. Chunki xalq orasida keng yoyilgan afsonalardan biri erkaklar orasida kechasi qabristonda biror ishni bajaribkelish mardlik va kuchlilik hisoblangan. Bu vaziyatlar bevosita bu hikoyaning adabiyot fani bilan aloqadorligini ko 'rsatadi.

6-sinf adabiyot darsligida berilgan "o 'g 'ri" hikoyasiga kelsak. Bu asar davomida ko 'plab frazeologizmlar, keng foydalaniladi. Abdulla Qahhor hikoyada "osmon uzoq – yer qattiq" , "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" , "Begim deguncha beling sinadi" , "Berganga bitta ham ko 'p, olganga o 'nta ham oz" , "Quruq osh og 'izni yirtadi" , "Chashna olib kelmoq" kabi ibora va maqolardan foydalanadi. Masalan: Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" maqolinining ma'nosini oladigan bo 'lsak, biron bir ishni qiladigan kishini rozi qilish, o 'sha inson ham qilgan ishidan manfaatdor bo 'lishi kerak ekanligini anglatadi. Bu hikoyadan komediya va drama yaratishda ham hammani qoyil qoldirdi, bu janrlarda, xususan, hikoyachilikda, original va yetuk badiiy asarlar yaratdi. Abdulla Qahhor so 'zga xasis, fikrga saxiy san 'atkor. Adib ijodining fazilatlarini ko 'p. U ko 'pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda "qo 'riq"larni ochadi, yangi gapaytadi, yangi timsollar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijodi ana shundadir. Yozuvchining asarlari yuksak badiiyligi, g'oyaning aniqligi, ijtimoiyligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlarini adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o 'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan O'zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa unda yangi janr hisoblangan realistik hikoyaning kamol topishida, yuksak cho 'qqiga ko 'tarilishida ulkan so 'z sa 'atkori Abdulla Qahhorning xizmati katta bo 'ldi. O 'zbek adabiyoti yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan XX asrning 20-30 yillarida xuddi Abdulla Qodiriy o 'zbek romanchiligida, Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyada, Cho 'lpon she'riyatida isloh yasagani singari Abdulla Qahhor ham epik turning kichik janri hisoblangan hikoyachilikning rivojlanishiga ana shunday hissa qo 'shdi. Uning har bir asari o 'zining adabiy go 'zalligi bilan insonning o 'ziga benihoyat jalb etadi, syujet va kompazitsion qurilishining pishiqqligi bilan hayratga soladi, tilining mukammalligi hamda samimiyligi bilan hayajonlantiradigan ijod namunalari. Bu asarlarni mutolaa qilganimiz sari tobora yangi – yangi qirralari kashf etilaveradi.

Abdulla Qahhorning hikoyanavislik san 'ati o 'zdan keyingi butun bir ijodkorlar avlodi uchun ibratli maktab bo 'lib qoldi. Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o 'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko 'rsatgan nodir iste





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

'dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo 'qki, ko 'p qirrali talant egasi bo 'lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o 'z talantini namoyish qilmagan bo'lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janridaham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani hayron qoldirdi, bu janrlarda (xususan, hikoyachilikda) original va etuk badiiyasalar yaratdi. Abdulla Qahhorning asarlari yuksak badiiyligi, g 'oyaning aniqligi, chuqur ijtimoiyligi va xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Ijodkor bir asar yozayotganda faqat bitta fan sohasiga bog 'lab yozmadi, u turli xil asar yozishdaturli xil fanlar bilan integratsiya qildi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlarini adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o 'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Qahhor el-yurt, millat, milliy adabiyot manfaati, sha 'ni yo 'lida ijod etgan yashab o 'tgan adib. Shu o 'rinda, o'zbek adabiyotining zabardast vakilini Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda "shaxsi butun" zot debatash mumkin. Xonadonida tor davralarda ham, katta anjumanlarda ham faqat dilidagini, haq gapni aytar edi. XX asr ikkinchi yarmida bizda, ijodkorlar orasida, Cho 'lponning "Kishan kiyma, bo 'yin egma, Ki sen ham hur tug 'ilg 'onsan!" degan shioriga to'la amal qilgan yagona jasur siymo Qahhor edi desam, mubolag 'a bo'lmaydi. Chunki, buni tasdiqlaydigan o'nlab, yuzlab misollar bor. Bundayshijoat, jur 'at o 'z vaqtida mamlakatimizdagi ma 'naviy, adabiy hayotga qanchalarta 'sir ko 'rsatgani, o 'nlab ijodiy ziyolilar ko 'zini ochgani, xususan, yosh ijodkorlar ko'ngliga o 't solgani, mustabid tuzum hukmdorlarini esa hushyor torttirgani keng jamoatchilikka ayon. Qahhor o 'shanday shijoati, haq so 'zi bilan vijdonli, chin iste 'dod sohiblarini huddi ohangrabodek o 'ziga tortardi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor adabiyotdagi yangiliklarni, har bir yozuvchi ijodini sinchiklab kuzatib borar, ular iste 'dodi, ijodiga xos bosh xususiyatlarni, ularning yutuq hamda kamchiliklarini aksari bexato belgilab olar, yutuqlari haqida quvonib, kamchiliklari to'g 'risida esa kuyunib gapirar edi. Mabodo asarida jiddiy xato, kamchilik ko 'rsa, kim bo 'lishidan qat 'i nazar, bor gapni xoh yuziga, xoh maqolasi orqali, xoh minbarda turib dangal aytaverar edi. Abdulla Qahhor o 'z ijodi haqida yozilgan ilmiy ishlar, maqolalar ustida ham odilona fikr yuritir edi. U o'zining insonlik, yozuvchilik sha 'nini yuksak qadrlar, kerak bo 'lganida qattiq turib o 'zini himoya qila olar, shu bilan birga o 'z ijodidagi yaxshi va zaif asarlarni farqlay bilar, asarlaridagi kam-ko'stlarni mardona turib tan olardi.





FOYDALALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. :O 'zbekiston. 2022. 98-bet.
2. Sharafiddinov. O, "Abdulla Qahhor" , "Yosh gvardiya" nashriyoti. Toshkent,1988. 123-bet
3. Normatov. U, "Ijod sehri" . " Sharq" nashriyoti, Toshkent. 2007.
4. O 'ljabiyev. U, "Abdulla Qahhor saboqlari" , Guliston. 2013, 40-bet
5. Abdulla Qahhor. Shaxs va ijodkor. Maqolalar to 'plami. – T. : Tamaddun,2013.
6. Normatov U. Ustoz ibrati. – T. : Alisher Navoiy nomidagi O 'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
7. To 'xliiev B. Adabiyot o 'qitish metodikasi. T. :Yangi asr avlodi, 2006.
8. Karimov N.XX asr adabiyoti manzaralari. – T. : O 'zbekiston, 2008.
9. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati. Esse. // «Tafakkur» jurnali, 2007

